LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL

Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

SUD AMALIYOTINING BIR XILLIGI VA BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA OLIY SUDNING HUQUQIY POZITSIYALARI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Ergasheva Gulhayo O‘tkir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Elektron pochta: ergashevagulhayo526@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada sud amaliyotining bir xilligi va barqarorligini ta‘minlashda Oliy sudning ikki turdagi huquqiy pozitsiyalari, ya‘ni Plenum tushuntirishlari va Rayosatning taftish tartibidagi qarorlari tahlil qilinadi. Muallif ushbu ikki institut o‘rtasidagi huquqiy tabiat farqini asoslab, milliy qonunchilikda mavjud bo‘shliqlarni aniqlaydi. Ilmiy adabiyotda O‘zbekiston huquq tizimiga to‘liq sud pretsedenti institutini joriy etishni taklif qiluvchi yondashuvlardan farqli o‘laroq, muallif xorijiy tajriba va xalqaro standartlarga tayangan holda, sud amaliyotidan chekinishni asoslantirish majburiyati kabi torroq va amaliy jihatdan kamroq xavfli yechimni taklif qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sud amaliyoti, bir xillik, barqarorlik, huquqiy pozitsiya, Oliy sud Rayosati, sud pretsedenti, asoslantirilgan chekinish.*

ПРАВОВЫЕ ПОЗИЦИИ ВЕРХОВНОГО СУДА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЕДИНООБРАЗИЯ И СТАБИЛЬНОСТИ СУДЕБНОЙ ПРАКТИКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Эргашева Гулхайо Уткир кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Электронная почта: ergashevagulhayo526@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются два вида правовых позиций Верховного суда, обеспечивающих единообразие и стабильность судебной практики, а именно разъяснения Пленума и постановления Президиума, принятые в порядке надзорного производства. Автор обосновывает различие в правовой природе данных институтов и выявляет существующие пробелы в национальном законодательстве. В отличие от подходов, предлагающих введение полноценного института судебного прецедента, автор, опираясь на зарубежный опыт и международные стандарты, предлагает более узкое и практически менее рискованное решение: институт обязательного обоснования отступления от судебной практики.

Ключевые слова: судебная практика, единообразие, стабильность, правовая позиция, Президиум Верховного суда, судебный прецедент, обоснованное отступление.

LEGAL POSITIONS OF THE SUPREME COURT IN ENSURING THE UNIFORMITY AND STABILITY OF JUDICIAL PRACTICE: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

Ergasheva Gulhayo O‘tkir qizi
Master’s student, Tashkent State University of Law
E-mail: ergashevagulhayo526@gmail.com

Abstract. This article analyses two types of legal positions issued by the Supreme Court that ensure the uniformity and stability of judicial practice, namely Plenum explanations and Presidium supervisory-review rulings. The author

Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

demonstrates the difference in the legal nature of these two institutions and identifies existing gaps in national legislation. Unlike approaches proposing the introduction of a full-fledged institution of judicial precedent, the author, drawing on foreign experience and international standards, proposes a narrower and practically less risky solution: a duty to give reasons for departing from established judicial practice.

Keywords: judicial practice, uniformity, stability, legal position, Presidium of the Supreme Court, judicial precedent, reasoned departure.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 14-avgustdagi PF-160-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan „Odil sudlov — 2030“ strategiyasida sud amaliyotining bir xilligi va barqarorligini ta‘minlash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Biroq bu vazifani amalga oshirishda Oliy sudning ikki xil instituti, ya‘ni Plenum va Rayosat ishtirok etadi, ularning huquqiy tabiati va vakolatlari sifat jihatidan farqlanadi, biroq bu farq ilmiy adabiyotda va amaldagi qonunchilikda hali yetarlicha tahlil qilinmagan [1].

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). „Sudlar to‘g‘risida“gi Qonun (O‘RQ-703) 25-moddasiga [2] ko‘ra, Plenum tushuntirishlari barcha sudlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi. Mazkur Qonunning 28-moddasiga 2024-yilda kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra esa, Rayosat taftish tartibida ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘ldi, biroq ushbu qarorlarda ifodalangan huquqiy pozitsiyalarning boshqa sudlar uchun qanday ahamiyat kasb etishi qonunda aniq belgilanmagan. Natijada, bir tomondan mavhum-normativ xususiyatga ega, ammo majburiy maqomga ega Plenum tushuntirishlari, ikkinchi tomondan esa aniq ish materialiga asoslangan, ammo

Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

maqomi noaniq Rayosat pozitsiyalari mavjud, bu esa sud amaliyotini bir xillashtirish mexanizmining ichki nomutanosibligini ko‘rsatadi.

Amaliyotda ushbu nomutanosiblik quyidagi holatlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, Oliy sud Plenumi muntazam ravishda sud amaliyotini bir xillashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qiladi, jumladan Plenumning 2024-yil 25-iyundagi 18-son, „Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini taftish tartibida ko‘rib chiqishning ayrim masalalari to‘g‘risida“gi qarori [3] kabi hujjatlar ochiq e‘lon qilinadi va quyi sudlar uchun majburiy orientir sifatida keng qo‘llaniladi. Ikkinchi tomondan, Rayosatning taftish tartibidagi qarorlari, garchi aniq ish materialiga asoslangan va huquqiy pozitsiya shakllantirishi mumkin bo‘lsa-da, tizimli ravishda ochiq e‘lon qilinmaydi. Ushbu bo‘shliqning qonun ijodkori tomonidan ham tan olinganini „Odil sudlov — 2030“ strategiyasi tasdiqlaydi: strategiyaga ko‘ra, 2027-yil 1-avgustdan boshlab aynan Oliy sud Rayosatining yagona sud amaliyotini shakllantiruvchi qarorlarini ochiq e‘lon qilish va yangilab borish uchun „Presedentlar“ reyestri joriy etiladi. Agar Rayosat pozitsiyalari allaqachon aniq huquqiy maqomga ega bo‘lganida, aynan shu institut uchun alohida reyestr va maxsus e‘lon qilish mexanizmini joriy etish zarurati tug‘ilmas edi.

Ushbu nomutanosiblikni nazariy jihatdan izohlashda rus huquqshunosi N.V. Samsonovning tasnifi [4] foydali bo‘lishi mumkin: uning fikricha, „sud amaliyoti“ tushunchasi tor va keng ma‘noda qo‘llaniladi, tor ma‘noda faqat aniq ish yuzasidan chiqarilgan yakuniy sud hujjatlari, keng ma‘noda esa bunga oliy sud instantsiyasining umumiy tushuntirishlari ham qo‘shiladi. Shu nuqtai nazardan, Rayosat pozitsiyalari sud amaliyotining tor ma‘nosidagi, Plenum tushuntirishlari esa keng ma‘nosidagi ko‘rinishini tashkil etadi, bu esa ularning huquqiy kuchi

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

nima uchun turlicha baholanishini qisman izohlaydi, biroq bu holat qonunda ochiq mustahkamlanmagan tafovutni oqlay olmaydi.

Bir xillik o‘xshash faktik holatlarga nisbatan o‘xshash huquqiy yechim qabul qilish printsipini, barqarorlik esa vaqt o‘tishi bilan shakllangan sud pozitsiyasining izchil saqlanib qolishini ifodalaydi. Yevropa Kengashi qoshidagi Sudyalar Kengashining 20-sonli Xulosasida (CCJE Opinion No.20, 2017) [5] ta‘kidlanishicha, bir xillik mutlaq bo‘lishi shart emas va amaliyotning asoslangan tarzda o‘zgarishi huquqning tabiiy rivojlanishi uchun maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin, biroq bunday o‘zgarish albatta oshkora asoslantirilishi lozim. Bu ikki tushunchaning aralashtirilishi, ularni qonunda alohida ta‘riflashning kechiktirilishiga olib kelmoqda.

Qiyosiy huquqda sud amaliyotining bir xilligini ta‘minlash uchun turli institutsional mexanizmlar mavjud, biroq ularning huquqiy-doktrinal maqomi bir xil emas. P. Stainer va D. Könignig tahliliga [6] ko‘ra, hatto romano-german huquq oilasiga mansub Germaniyada ham stare decisis tushunchasi doktrinal jihatdan izchil bo‘lmagan, ammo amaliy ahamiyati yuqori tushuncha sifatida baholanadi: sud tuzilishi to‘g‘risidagi Qonunning (GVG) 132-moddasiga [7] ko‘ra, sudlarning turli tarkiblari o‘rtasidagi tafovut Katta senat tomonidan hal etiladi, biroq bu quyi sudlarni avvalgi qarorlarga rasman bog‘lamaydi. S. Civitaresening tahliliga ko‘ra, Yevropa huquq tizimlarida umuman olganda stare decisis modeliga yaqinlashish tendensiyasi kuzatilmoqda, biroq bu yaqinlashish har doim ham to‘liq, rasman majburiy pretsedent shaklini olmaydi. Fransiyada Kassatsiya sudining to‘la yig‘ilishi (Sudlar tashkiloti kodeksining L431-6-moddasi), Qozog‘istonda esa Konstitutsiyaning 4-moddasi [8] orqali Oliy sudning normativ qarorlari huquq tizimining tarkibiy qismi sifatida tan olinishi shu vazifani bajaradi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Samsonovning tahliliga ko‘ra, Rossiya fuqarolik protsessual kodeksining 391.9 va 392-moddalariga tayanib, Rossiya Oliy sudi Prezidiumining nazorat tartibidagi qarorlari amalda huquq manbai sifatida oshkormas tarzda tan olingan, garchi bu qonunda ochiq mustahkamlanmagan bo‘lsa ham; bu xulosa O‘zbekiston Rayosatining holatiga bevosita mos keladi.

„Sudlar to‘g‘risida“gi Qonunning 9-moddasida sudyaning mustaqilligi va uning aniq ish yuzasidan qabul qilgan qarori uchun javobgar emasligi kafolatlangan. Shu sababli, sud amaliyotining bir xilligini ta‘minlashga qaratilgan har qanday institut sudyaning ichki e‘tiqodiga asoslangan qaror qabul qilish erkinligiga daxl qilmasligi lozim. Ushbu talab sud amaliyotidan chekinishni asoslantirish majburiyati modelining afzalligini yana bir bor tasdiqlaydi, chunki u sudyani muayyan yechimga majburlamaydi, balki undan faqat mavjud pozitsiyadan chekinish sabablarini ochiq bayon etishni talab qiladi, bu esa sudya mustaqilligi bilan huquqiy aniqlik o‘rtasidagi ziddiyatni institutsional darajada bartaraf etadi.

„Odil sudlov — 2030“ strategiyasining 20-bandida sud amaliyotini uzluksiz tahlil qiluvchi institutsional bo‘linma tuzish va „Sud qarorlarining ta‘siri tahlili“ (Judicial Decision Impact Assessment) mexanizmini joriy etish ko‘zda tutilgan, strategiyaning 22-bandida esa 2027-yil oxirigacha odil sudlov sifati ko‘rsatkichlari tizimini ishlab chiqish belgilangan. Ushbu institutsional vositalar taklif etilayotgan modelning amaliy jihatdan ta‘minlanishi uchun zarur infratuzilmani yaratadi, chunki aynan shu bo‘linma Plenum va Rayosat pozitsiyalarini tizimlashtirish, ulardan chekinish holatlarini kuzatish va „Presedentlar reyestri“ni yuritish bo‘yicha amaliy vazifalarni bajarishi mumkin.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Yuqoridagi tahlil sud amaliyotini bir xillashtirishning ikki qutbli modeli, ya‘ni to‘liq majburiy pretsedent va sof tavsiya xarakteridagi yo‘riqnoma o‘rtasida oraliq yechimga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Xorijiy tajribada, xususan Germaniya misolida ko‘rilganidek, bunday oraliq holat allaqachon amalda mavjud: sud pozitsiyalari rasman majburiy bo‘lmasa-da, yuqori amaliy ahamiyatga ega. Bu holatni institutsional jihatdan mustahkamlash uchun sud amaliyotidan chekinishni asoslantirish majburiyati instituti qo‘llanilishi mumkin: nemis huquq tizimida sudlar avvalgi pozitsiyadan chekinishni maxsus asoslashi talab etiladi, umumiy huquq tizimida esa „distinguishing“ texnikasi orqali amaliyotdan chekinish sabablari oshkora ko‘rsatiladi. CCJE 20-sonli Xulosasining 32-39-bandlariga ko‘ra, bunday chekinish sudyaning mustaqilligini cheklamaydi, agar u yetarlicha asoslangan bo‘lsa va intizomiy sanksiyaga sabab bo‘lmasa. Muallifning fikricha, aynan shu model, ya‘ni sud amaliyotidan chekinishni asoslantirish majburiyati, O‘zbekiston sharoitida ham Plenum, ham Rayosat pozitsiyalariga nisbatan bab-baravar qo‘llanilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotda O‘zbekiston huquq tizimiga to‘liq sud pretsedenti institutini joriy etishni taklif qiluvchi bir necha yondashuv mavjud. Jumladan, J. Botirboyev va F. Miraxmedovaning (2025) tadqiqotida [9] cheklangan pretsedent institutini joriy etish va yagona elektron reestr yaratish taklif etilgan bo‘lsa, B.K. Xodjayevning tadqiqotida romano-german huquq oilasiga mansub Germaniya va Rossiya tajribasi asosida sud pretsedentini qaysi huquqiy doktrina orqali milliy tizimga kiritish mumkinligi muhokama qilinadi. Ushbu ikkala yondashuv ham, mohiyatan, O‘zbekistonning yozma huquq an‘anasiga pretsedent institutini, turli darajada bo‘lsa-da, kiritishni taklif qiladi, bu esa hokimiyatlar bo‘linishi va sud ijodkorligi chegaralari haqidagi keng doktrinal bahsni talab qiladi. Muallifning

nuqtai nazaricha, bunday keng ko‘lamli islohotga o‘tishdan oldin, birinchi navbatda mavjud tizim ichidagi aniq nomutanosiblikni, ya‘ni Plenum va Rayosat pozitsiyalarining maqomidagi farqni bartaraf etish maqsadga muvofiqroqdir. Sud amaliyotidan chekinishni asoslantirish majburiyati modeli, farqli o‘laroq, pretsedentni huquq manbai sifatida rasman tan olishni talab qilmaydi va shu boisdan CCJE Xulosasining 28-bandida qayd etilgan, oliy sud tomonidan mavhum-me‘yoriy tarzda majburiy talqinlar berilishi natijasida hokimiyatlar bo‘linishi tamoyiliga daxl qilinishi xavfini keltirib chiqarmaydi. Shu ma‘noda taklif etilayotgan model kengroq pretsedent-markazli islohotlarga muqobil emas, balki ularga o‘tishning oraliq, kamroq xavfli bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA. Yuqorida bayon etilganlar asosida quyidagi ikki taklif ishlab chiqilgan.

Birinchidan, „Sudlar to‘g‘risida“gi Qonunning 25 va 28-moddalariga sud amaliyoti, uning bir xilligi va barqarorligi tushunchalarining qonuniy ta‘riflarini, shuningdek Rayosat taftish tartibidagi qarorlaridagi huquqiy pozitsiyalarning shakllantirilishi va e‘lon qilinishi tartibini belgilaydigan normalarni kiritish taklif etiladi.

Ikkinchidan, quyi sudlar uchun „Presedentlar reyestri“ga kiritilgan huquqiy pozitsiyalarga tayanish va ulardan chekinish holatida buni sud qarorining asoslantiruvchi qismida izohlash majburiyatini, ya‘ni sud amaliyotidan chekinishni asoslantirish majburiyati joriy etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 14-avgustdagi PF-160-sonli „Odil sudlov — 2030“ strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. // URL: https://lex.uz/docs/-8406903.

2. O‘zbekiston Respublikasining „Sudlar to‘g‘risida“gi Qonuni (O‘RQ-703), 9, 25 va 28-moddalar. // URL: https://lex.uz/docs/-5534923.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-iyundagi 18-son „Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini taftish tartibida ko‘rib chiqishning ayrim masalalari to‘g‘risida“gi qarori. // URL: https://lex.uz/docs/-7001552.

4. Самсонов Н.В. К вопросу о месте и значении судебной практики и судебного прецедента в отечественном гражданском процессуальном праве // Вестник СПбГУ. Право. 2019. Т.10. Вып.2. С.293-310. DOI 10.21638/spbu14.2019.207. // URL: https://lawjournal.spbu.ru/article/view/5170/4381

5. CCJE Opinion No.20 (2017) „On the role of courts with respect to the uniform application of the law“. // URL: https://rm.coe.int/opinion-no-20-2017-on-the-role-of-courts-with-respect-to-the-uniform-a/16807661e3.

6. Stainer P., König D. The Concept of Stare Decisis in the German Legal System – a Systematically Inconsistent Concept with High Factual Importance // Studia Iuridica Lublinensia. 2018. Vol. XXVII, no. 1. P.121-130. https://journals.umcs.pl/sil/article/view/6610/pdf

7. Gerichtsverfassungsgesetz (GVG), §132 (Germaniya). // URL: https://www.gesetze-im-internet.de/gvg/__132.html.

8. Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi, 4-modda.

9. Botirboyev J., Miraxmedova F. O‘zbekiston huquq tizimida sud pretsedenti (case law) institutining nazariy va amaliy asoslari // Latin American Journal of Education. 2025. №7. B.668-676. https://lajoe.org/index.php/LAJoE/article/view/421/575